

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**SERJANOV AYMURAT MEDETBAEVICH**

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA BANK XIZMATLARINI  
RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI  
(ATB MIKROKREDIT BANK MISOLIDA)**

**08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
economical sciences**

**Serjanov Aymurat Medetbaevich**

Qoraqalpog‘iston Respublikasida bank xizmatlarini rivojlantirish yo‘nalishlari  
va istiqbollari (ATB Mikrocreditbank misolida)..... 3

**Сержанов Аймурат Медетбаевич**

Перспективы и направления развития банковских услуг в Республике  
Каракалпакстан (на примере филиала АТБ Микрокредитбанк)..... 27

**Serjanov Aymurat Medetbaevich**

Prospects and development directions of banking services in the Republic of  
Karakalpakstan (in the example of ATB Mikrocreditbank)..... 53

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 57

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**SERJANOV AYMURAT MEDETBAEVICH**

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA BANK XIZMATLARINI  
RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI  
(ATB MIKROKREDIT BANK MISOLIDA)**

**08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2024.1.PhD/Iqt3717 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) va «ZiyoNet» ta'lim axborot tarmog'ida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Musagaliyev Ajiniyaz Jumagulovich  
iqtisodiyot fanlari doktori

**Rasmiy opponentlar:** Norchayev Asatullo Norbo'tayevich  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor


Atamuratova Nurzada Bayramovna  
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:** Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.01.2020.1.20.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil « 10 » aprel kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1 uy. Tel.: (99861) 223-60-47; faks: (99861) 223-60-78; e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (289 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1 uy. Tel.: (99861) 223-60-47; faks: (99861) 223-60-78; e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 24 » mart kuni tarqatildi.  
(2025-yil « 24 » mart dagi 69 raqamli reestr bayonnomasi).

  
J.K. Sauxanov  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash raisi, i.f.d., professor

  
R.B. Utemuratov  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, PhD, dotsent

  
B.S. Qalmuratov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,  
i.f.d., professor



## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda bank xizmatlari bozorida raqobatning yanada kuchayib borishi va raqamli texnologiyalarning ustuvorligi sharoitida banklar faoliyatida moliyaviy xizmatlar samaradorligi va sifatini oshirish dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Jahon bankinging hisobotlarida «pandemiya davrida raqamli bank xizmatlaridan ilk foydalanuvchilar sonining 40 foizi onlayn-banking xizmatidan foydalangan bo‘lib, Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasida - 54 foiz, Lotin Amerikasi va Karib havzasi mintaqasida - 15 foiz, Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida - 10 foizni tashkil etgan»<sup>1</sup>. Bugungi kunda jahonda bank xizmatlarini rivojlantirishda, ayniqsa tijorat banklari tomonidan xizmatlar ko‘rsatishda nomuvofiqlarni bartaraf etish, bank xizmatlarini rivojlantirishda hududlar imkoniyatidan maqsadli foydalangan holda tadbirkorlik subyektlariga sifatli xizmat ko‘rsatishni tashkil qilishga e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda moliyaviy institutlar faoliyati va ko‘rsatiladigan xizmatlar samaradorligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar tarkibida yuridik va jismoniy shaxslarga ko‘rsatiladigan bank xizmatlarini rivojlantirish yo‘nalishidagi tadqiqotlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlariga ko‘ra bank xizmatlarini samarali tashkil etish, masofaviy bank xizmatlarini kengaytirish, banklarda xizmatlarni mijozlarga taqdim etish madaniyatini oshirish, moliyaviy xizmatlarni aholi qatlamlari va tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish va yangi xizmat turlarini joriy etish, xizmat ko‘rsatish masalalarida mijozlarning fikrini doimiy e‘tiborga olgan holda bankka bo‘lgan ishonchni oshirish kabi yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O‘zbekistonni barpo etishda moliya institutlarini sifat jihatdan rivojlantirish va xizmat ko‘rsatish madaniyatini yanada oshirish, zamonaviy talablarga ko‘ra bank xizmatlari sifati va samaradorligini ta‘minlash kabi yo‘nalishlarda keng qamrovli tadbirlar amalga oshirilmoqda. “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida “pul-kredit, fiskal va tashqi savdo siyosatlarini o‘zaro muvofiqlashtirish hamda tovar va xizmatlar bozorida raqobat muhitini yaxshilashga qaratilgan tarkibiy islohotlarni davom ettirish”<sup>2</sup> kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni hal etishda tijorat banklari faoliyatini zamonaviy talablarga ko‘ra tashkil etish, bank xizmatlarida kreditlash mexanizmidan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, bank xizmatlari prognoz ko‘rsatkichlarini asoslash kabi yo‘nalishdagi tadqiqotlarni yanada kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston - 2030 strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 31-avgustdagi PF-213-son “Qoraqalpog‘iston Respublikasida tadbirkorlik, innovatsion texnologiyalar va

<sup>1</sup> World bank Report. <https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2022/06/29/covid-19-drives-global-surge-in-use-of-digital-payments>.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-sonli Farmoni. <https://www.lex.uz>.

infratuzilmalarni jadal sur'atlarda rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" farmonlari, 2024-yil 2-apreldagi PQ-149-son "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini moliyalashtirishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlantirishning I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Banklar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar nazariyasining rivojlanishida turlicha yo'ndashuvlar va banklar xizmati bozorini rivojlantirish masalalari xorijlik olimlardan X.Duglas, A.Csikosova, M.Janoshkova, K.Culkova, M.Hampa, Z.Aboutorabi, K.Konara, I.Ediriweera, D.Perera, A.Mazzarolo, E.Wagner, D.Montemor, F.Diener, M.Spacek, F.Kitsios, I.Giatsidis, M.Kamariotou, M.Matsuo, C.Minami, T.Matsuyama, S.Zimmermann<sup>3</sup> kabi iqtisodchilarning ilmiy ishlarida bank xizmatlari marketingining bank sektorida mijozlar ehtiyojini qondirishga ta'siri, bank sektoridagi raqamli transformatsiya va strategiya, elektron xizmatlarni rivojlantirish masalalari va shuningdek, Internet-banking xizmatlarida innovatsion yondashuvlarga oid masalalar yoritilgan bo'lib, mazkur tadqiqotlar mavzuni o'rganishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Qayd etilganlardan farqli ravishda mamlakatlar iqtisodiyoti tizimlari faoliyatini xususiyatlarini hamda boshqa omillarning bank xizmatlari bozoriga ta'sirini tadqiq etishga F.Derek<sup>4</sup> ilmiy ishi bag'ishlangan. Shuningdek «Moliyaviy supermarket» va «moliyaviy butik» g'oyalari bo'yicha hamda bank xizmatlari bozorida mavjud ko'rsatilayotgan elektron xizmatlarni universallashtirish masalalari J.Sinki<sup>5</sup> ilmiy ishida tadqiq etilgan.

Bu borada MDH davlatlari olimlaridan I.I.Bichkova, O.I.Lavrushin, A.M.Tavasiyev, T.Y.Mazurina, E.P.Jarkovskaya, A.S.Goncharuk va

---

<sup>3</sup> Duglas H. Bankovskaya politika v oblasti kreditovaniya. – M.: Slovo, 1971. – 508 s.; Csikosova, A., Janošková, M., & Culkova, K. (2017). Marketing of Bank services: A case study Slovak banks. In book: Banking: Services, Opportunities and Risks, Edition: Banks and Banking Developments, Publisher: NOVA Science publishers (New York, USA), Editors: Kazik Jerzy, 61 -97.; Hampa, M., & Aboutorabi, Z. (2017). Investigating the effect of marketing new banking services on value creation in bank customers. Proceedings of the Third Conference on Community Empowerment in the Field of Humanities and Management Studies.; Konara, K.M.N., Ediriweera, I.N., Perera, D.A.M. (2019). Impact of extended marketing mix on customer satisfaction in state banking sector. International Journal of Corporate Management, 1(02). 1 -17.; Mazzarolo, A., Wagner, E., & Montemor, D. (2021). Effects of internal marketing on strategic orientations in the banking sector. International Journal of Bank Marketing, 8(12), 314 – 330.; Diener, F., & Spacek, M. (2021). Digital Transformation in Banking: A Managerial Perspective on Barriers to Change. Sustainability (13), 1 -17.; Kitsios, F., Giatsidis, I., & Kamariotou, M. (2021). Digital Transformation and Strategy in the Banking Sector: Evaluating the Acceptance Rate of E -Services. Journal of Innovation Technology Marketing Complex, 7(204), 168 -185.; Matsuo, M., Minami, C., & Matsuyama, T. (2018). Social influence on innovation resistance in internet banking services. Journal of Retailing and Consumer Services, Elsevier, 45(C), 42 -51.; Zimmermann, S. (2019). Same but Different: How and Why Banks Approach Sustainability. Sustainability, 11(8), 2267 -2285.

<sup>4</sup> Channon, Derek F. Bank Strategic Management and Marketing. 1986 by John Wiley & Sons Ltd. Chichester; New York: Wiley.

<sup>5</sup> Sinkey, Joseph F. Commercial bank financial management in the financial-services industry / Joseph F. Sinkey, Jr. Upper Saddle River, New Jersey 07458, 992 p.

boshq.<sup>6</sup> asarlarida turlicha yondashuvlar mavjud. Ularning aksariyatida tijorat banklarining masofaviy xizmatlari to'g'risida ta'riflar berilgan va fikrlar bildirilgan.

Mazkur sohani o'zbekistonlik olimlardan Sh.Z.Abdullayeva, A.A.Omonov, F.I.Mirzayev, O.F.Aliqoriyev, G.A.Bekmuradova, O.A.Ortiqov, O.B.Sattarov, A.K.Qodirov, Sh.Yakubova va boshqalarning<sup>7</sup> ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. Shu bilan birga Z.T.Mamadiyarov<sup>8</sup> ishida bank tizimida masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi odamlar hayotidagi o'zgarishlar, yangi axborot texnologiyalarning joriy etilishi va bank operatsiyalarning avtomatlashtirilgani bilan bog'liqligi asoslab berilgan. X.A.Xudayarova<sup>9</sup> tadqiqotida esa tijorat banklarining masofaviy xizmatlarini yanada rivojlantirishda bank chakana xizmatlari bozorini takomillashtirish taklif etilgan.

Lekin ushbu tadqiqotlarda mamlakatimiz hududlarida bank xizmatlari ko'rsatishni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari atroflicha o'rganilmagan. Mazkur tadqiqotda Qoraqalpog'iston Respublikasida bank xizmatlari ko'rsatish soha maxsus izlanish obyekti sifatida yahlit o'rganilib, uni rivojlantirish yo'nalishlari va istiqbollari borasidagi ilmiy muammolarning amaliy yechimlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № PZ-2017-092718 - «Qoraqalpog'iston Respublikasida ekologik turizmni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish» mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Qoraqalpog'iston Respublikasida bank xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlarini takomillashtirish va istiqbollarni asoslash bo'yicha taklif tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

bank moliya xizmatlarining mamlakat hududlari sharoitidagi ilmiy nazariy tahlili asosida uni rivojlantirish yuzasidan yondashuvlar asoslanadi;

hudud iqtisodiy o'sishiga erishishda bank xizmatlarini ko'rsatishning istiqbolli ustuvor yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

---

<sup>6</sup> Бычкова И.И. Технологические инновации в продаже банковских продуктов / И. И.Бычкова, О. Г. Семенюта // Современные технологии управления. - 2016. - №3 (63). - С. 55-62.; Лаврушин О.И. Деньги, кредит, банки: Учебник / Под ред. засл. деят. науки РФ, д-ра экон. наук, проф. О.И.Лаврушина. -М.: КНОРУС, 2016.- 576 с.; Тавасиев А.М., Т.Ю.Мазурина, В.Б.Бычков.Банковское кредитование. М.: ИНФРАМ. 2012. 507 с.; Жарковская Йе.П. Банковское дело.М.: ОМЕГА-Л. 2014. 413 с.; Гончарук А.С. Институциональные аспекты развития сегмента розничных банковских услуг: дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Сев.-Осет. гос. ун-т им. К.Л. Хетагурова - Шахты, 2012. - 183 с.

<sup>7</sup> Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi. -T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2017. 535-536 bb.; Omonov A.A. Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati, -T.: O'zbekiston Respublikasi bank-moliya akademiyasi, 2008. 43 b.; Mirzayev F.I. O'zbekistonda banklararo raqobatni shakllantirishning konseptual asoslari. Iqtisod fanlar doktori diss. avtoreferati. -T.: O'zbekiston Respublikasi bank-moliya akademiyasi, 2009. 41 b.; Aliqoriyev O.F. Tijorat banklari moliyaviy xizmat turlarini rivojlantirish yo'nalishlari. Iqt. fan. nom. diss. avtr. -T.: 2011. 28 b.; Bekmuradova G.A. Tijorat banklari raqobatbardoshligini oshirishning innovatsion marketing konsepsiyasini takomillashtirish. Iqt. fan. nom. diss. avt. -T.: 2017. 53 b.; Ortiqov O.A. Banklararo raqobat sharoitida bank xizmatlari va ularni takomillashtirish yo'llari. Iqt. fan. nom. diss. avt. -T.: 2009. 19 b.; Sattarov O.B. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi barqarorligini ta'minlash metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisod fanlar doktori diss. avtoreferati. -T.: 2018. 61 b.; Qodirov A.K. Tijorat banklarida kredit berish mexanizmini takomillashtirish yo'llari. Toshkent, 2009.

<sup>8</sup> Mamadiyarov Z.T. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish. Iqtisod. fan. fals. d-ri (PhD). ... dis. avtoref. - T., 2019. - 56 b.

<sup>9</sup> Xudayarova X.A. O'zbekistonda chakana bank xizmatlari amaliyotini takomillashtirish: Iqtisod. fan. fals. d-ri (PhD). ... dis. avtoref. - T., 2020. - 63 b.

xorijiy mamlakatlarda zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatishni rivojlantirishga oid ilg'or tajribalardan foydalanish yo'llarini tadqiq etish;

mamlakat hududlarida tadbirkorlikni rivojlantirishda bank xizmatlari ko'rsatishning mahalliy xususiyati va imkoniyatlarini ochib berish;

Qoraqalpog'iston Respublikasida tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlar hajmini oshirishga doir muammolarni tadqiq etish va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Qoraqalpog'iston Respublikasida bank xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlarini takomillashtirish va istiqbollarini asoslash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida ATB Mikrokredit bank Qoraqalpog'iston Respublikasi filiali faoliyati olingan.

**Tadqiqot predmetini** ATB Mikrokredit bank Qoraqalpog'iston Respublikasi filiali tomonidan tadbirkorlik subyektlariga bank xizmatlari ko'rsatishni rivojlantirish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida guruhlash, umumlashtirish, qiyosiy va omilli tahlil, dinamikada taqqoslash, iqtisodiy-matematik va statistik tahlil, ekspert baholash va prognozlash kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

mintaqada moliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda "oilaviy tadbirkorlik" dasturlari doirasida maqsadli loyihalar bo'yicha mikrokreditlarni ustuvor darajada ajratishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

mintaqada bank xizmatlarini rivojlantirishda hudud ixtisoslashuvi va infratuzilmaviy ta'minlanganlik darajasiga ko'ra qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlarining uzoq muddatli ijarasi asosida o'z biznesini tashkil etishga kreditlar ajratishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

dasturlar bo'yicha kreditlarni optimallashtirishga ko'ra ular doirasidagi so'ndirilgan kreditlar hisobidan shakllangan resurslarni mazkur hududdagi loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

bank xizmatlari imkoniyatlarini tadbirkorlik subyektlariga faol jalb qilgan holda Mikrokreditbank ATB Qoraqalpog'iston Respublikasi filiali bo'yicha kreditlar va depozitlar hajmining 2030 yilgacha ssenariyli prognozi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

mintaqada moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish xususiyatlari va bank xizmatlari sohasini samarali tashkil etishning shart-sharoitlari aniqlashtirilgan;

bank-moliya xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribadan foydalanish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlar bazasining rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, ATB Mikrokreditbank, Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat statistika boshqarmasi, xalqaro moliya institutlari rasmiy manbalaridan olinganligi, tadqiqotlar me'yoriy huquqiy hujjatlar va tahliliy ma'lumotlarga asoslanganligi hamda xulosa va

takliflarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xulosa va tavsiyalardan Qoraqalpog‘iston Respublikasida bank xizmatlari sifati darajasini oshirish va sohani rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarining nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda tadbirkorlik subyektlariga bank-moliya xizmatlarini ko‘rsatishni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishda hamda sohaga oid o‘quv adabiyotlarini tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** ATB Mikrokredit bank Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali faoliyatiga ko‘ra bank xizmatlarini rivojlantirish yo‘nalishlarini takomillashtirish va istiqbolini asoslash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

mintaqada moliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda “oilaviy tadbirkorlik” dasturlari doirasida maqsadli loyihalar bo‘yicha mikrokreditlarni ustuvor darajada ajratishning maqsadga muvofiqligi bo‘yicha taklif O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-apreldagi PQ-149-son «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini moliyalashtirishni takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi faoliyatida joriy qilingan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 23-avgustdagi 13/00-01/05-2273-son ma‘lumotnomasi). Ushbu taklif mintaqada o‘zini-o‘zi band qilgan jismoniy shaxslarga qarz oluvchining tadbirkorlik faoliyati samaradorligi, kreditning maqsadli ishlatilishi hamda kreditlardan tomorqani rivojlantirishning parrandachilik, quyonchilik, chorvachilik, asalarichilik, baliqchilik va ixcham issiqxona kabi yo‘nalishlarida foydalanishi uchun garovsiz ajratilishiga muayyan darajada xizmat qilgan;

mintaqada bank xizmatlarini rivojlantirishda hudud ixtisoslashuvi va infratuzilmaviy ta‘minlanganlik darajasiga ko‘ra qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlarining uzoq muddatli ijarasi asosida o‘z biznesini tashkil etishga kreditlar ajratishning maqsadga muvofiqligi bo‘yicha taklif O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi PQ-39-son «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi faoliyatida joriy qilingan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 23-avgustdagi 13/00-01/05-2273-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklif aholining tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qollab-quvvatlash, mahallalarda kichik biznes va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, yoshlar va

xotin-qizlarni daromadli mehnat bilan band qilish borasidagi tadbirlarni tizimli ravishda davom ettirishning ilmiy asoslanish darajasini oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

dasturlar bo'yicha kreditlarni optimallashtirishga ko'ra ular doirasidagi so'ndirilgan kreditlar hisobidan shakllangan resurslarni mazkur hududdagi loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirishning maqsadga muvofiqligi taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-apreldagi PQ-149-son «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini moliyalashtirishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 23-avgustdagi 13/00-01/05-2273-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklif mintaqada hunarmandchilikni rivojlantirish, xotin-qizlar va yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, Yoshlar - kelajagimiz dasturlari doirasida kreditlarni optimallashtirish, Har bir oila - tadbirkor dasturi doirasidagi chora-tadbirlarning ilmiy asoslanish darajasini oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

bank xizmatlari imkoniyatlarini tadbirkorlik subyektlariga faol jalb qilgan holda Mikrocreditbank ATB Qoraqalpog'iston Respublikasi filiali bo'yicha kreditlar va depozitlar hajmining 2030-yilgacha ssenariyli prognozi bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi PQ-39-son «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 23-avgustdagi 13/00-01/05-2273-son ma'lumotnomasi). Taklif oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish doirasidagi loyihalarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan moliyaviy resurslarning hududlar kesimidagi maqsadli parametrlari amalga oshirilishida, dasturlar doirasida kredit mablag'lari vakolatli banklar, shu jumladan Mikrocreditbank ATBning o'z resurslari hisobidan ajratilishiga hamda depozitlar bank majburiyatlariga nisbatini oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, shu jumladan, OAK e'tirof etgan milliy nashrlarda 3 ta, xorijiy jurnallarida 1 ta ilmiy maqolalar nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 145 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Ishning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib

berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Bozor munosabatlari sharoitida tijorat banklari xizmatlari shakllanishining tashkiliy-huquqiy va ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida banklarning paydo bo'lishi va rivojlanishining nazariy asoslari, bozor iqtisodiyoti sharoitida xizmatlar sohasida bank xizmatlari infratuzilmasi shakllanishining ilmiy nazariy asoslari, shuningdek tijorat banklarining tashkiliy-huquqiy tuzilishi va xususiyatlarini o'rganish natijasida olingan nazariy xulosalar aks ettirilgan.

Xalqaro tajribadan ma'lumki bank xizmatlari tarkibiga quyidagilar kiradi. Bu - bank depozitlari, pul o'tkazmalari, kreditlar, jumladan, avtokreditlar, ipoteka, iste'mol kreditlari, Internet-banking, bank kartalari va boshqalar kabi asosiy shartlar va tushunchalarni o'z ichiga oladi. Hozirda joylarda infratuzilmaviy rivojlanish darajasining yetarli emasligi va sifatining pastligi O'zbekiston hududlarida tijorat banklariga o'z faoliyatining sifat va samaradorligini oshirishni qo'llab-quvvatlashda kutilgan maqsadlarga to'liq erishishga imkon bermayapti. Bundan tashqari, davlat siyosati yo'nalishlarida bank bozoridagi xorijiy kapitalni qabul qilish rejimini liberallashtirishga qaratilgan raqobatni yanada kuchaytirmoqda.

Hozirgi bosqich – bu jadal intensiv rivojlanish yo'li bo'lib, bank bozorining barcha tarkibiy qismlarini juda murakkab dinamik ehtimollik tizimining xususiyatlari to'plami sifatida har tomonlama tahlil qilmasdan va baholamasdan mumkin emas.

Ta'kidlash kerakki, bozor infratuzilmasini shakllantirish haqidagi ilk g'oyalar amerikalik iqtisodchilardan A.Shou, D.Uelday va boshqalarning ishlarida ifodalangan bo'lib, keyinchalik R.Koks, U.Alderson, F.A. Krutikova, A.I. Levin, T. Levitt, D.Revzan, B.A. Solovyova, L. Fetolmova va boshqalarning ishlarida rivojlantirilgan.

Ta'riflar tahlilidan aytish mumkinki, har qanday infratuzilma, iqtisodiy kategoriya sifatida, moddiy va mehnat resurslari yordamchi funksiyani bajaradigan qandaydir "asosiy" jarayonning mavjudligini nazarda tutadi. Bunday "asosiy" jarayon sifatida bank xizmatlari bozori xizmat qilishi mumkin.

Dissertant fikricha, ushbu tadqiqotda bank infratuzilmasi ikki elementdan iborat: bir tomondan Markaziy bank, ikkinchi tomondan ixtisoslashgan moliya institutlariga ega tijorat banklari. Bank xizmatlari ko'rsatilishida axborot ta'minotini ta'minlovchi muhim tashkiliy infratuzilma sifatida - bu reklama faoliyati hisoblanadi. Uning ahamiyati xizmatlar haqidagi ma'lumotlarni turli xil shakllarda keng omma orasida tarqatishdan iborat, shu bilan birga reklama nafaqat axborot manbai, balki xizmatlarga yangi ehtiyojlar va aholi to'lov qobiliyatini rag'batlantiruvchi muhim tashkiliy mexanizm hisoblanadi<sup>10</sup>. Shunday ekan, fikrimizcha, hozirda mamlakatimiz hududlarida bank xizmatlari ko'rsatish haqida axborot resurslari bo'yicha ma'lumotlar bankini yaratish muhim ahamiyatga ega. Bunda quyidagi tadbirlarni amalga oshirishda ma'lumotlar banki muhim rol o'ynaydi:

- hudud aholisiga, tadbirkorlik subyektlarga ma'lumotlar banki orqali ularning bank xizmatlari haqidagi to'liq ma'lumotlarni olish imkonini beradi;

---

<sup>10</sup> Бурменко Т.Д. Экономика сферы услуг (Вводный курс)/ – Иркутск: Изд-во БГУЭП, 2004. - С. 37-38.


- hudud miqyosida savdo maskanlarida axborot darchalarini ochish, joylashtirish yo'li bilan jami aholi uchun axborotlardan samarali foydalanishga imkoniyat yaratadi.

Bank xizmatlari samaradorligini oshirishda iqtisodiy-huquqiy infratuzilmaning o'rnini muhim. Mazkur tuzilma o'z tarkibiga xo'jalik sudi, huquqiy maslahat markazlari, notarius va advokatlik idoralarini qamrab oladi. Ular rolining muhimligi bozor munosabatlari rivojlanishi sharoitida tadbirkorlik subyektlari o'rtasida paydo bo'ladigan nizolarni bartaraf etish kabi masalalarni hal qilishda namoyon bo'ladi. Shunday ekan, xizmat ko'rsatishni tashkiliy jihatdan ta'minlashning asosiy maqsadi samaradorlikka erishish bilan bog'liq ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlarga: raqobatbardosh tovar va xizmatlar ishlab chiqarish va ularni sotishni amalga oshirish, ishchi kuchini tiklash uchun korxonalarining mavjud imkoniyatlari va natijalariga faol ravishda ta'sir etishdan iborat.

Aytish o'rinlidir, xorijiy davlatlarning zamonaviy bank tizimi keng ko'lamli innovatsiyalar bilan ajralib turadi, bu an'anaviy bank operatsiyalarini amalga oshirish texnologiyalariga ham, yangi xizmatlarni ko'rsatish mexanizmlariga ham taalluqlidir. U yakuniy iste'molchiga, ya'ni bank xizmatlari bozoriga muhtoj taklif etilayotgan xizmatlar portfelini shakllantirishni, savdo va savdoni tashkil qilishni talab qiladi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan 1991 yilda tijorat banklarining soni 16 ta bo'lgan bo'lsa, hozirda mamlakatimizda 30 dan ortiq tijorat banki, shulardan 7 tasi xususiy va 5 tasi chet el kapitali ishtirokidagi tijorat banklari faoliyat ko'rsatib, ularning filial, mini-bank va chakana xizmat ko'rsatuvchi muassasalari tomonidan taklif etilayotgan bank xizmatlari va mahsulotlari turlari kengayib bormoqda.

Ta'kidlash joizki, bank boshqaruvining eng muhim vazifalaridan biri bu strategiyaga, shuningdek, kredit tashkiloti faoliyati ko'lamiga eng mos keladigan tashkiliy tuzilmani shakllantirish hisoblanadi. Qanday shaklni tanlashga bir qator ichki va tashqi omillar ta'sir qiladi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin: bank xizmatlarining ayrim turlariga talab darajasi, bank boshqaruvini markazlashtirish darajasi, kredit muassasasi faoliyat hududi, bankning ixtisoslashuvi va boshqalar.



**1-rasm. Banklarning tashkiliy tuzilmalarining turlari<sup>11</sup>**

<sup>11</sup> Русанов Ю.Ю. Банковский менеджмент / Учебник. - М.: Магистр: НИЦ ИНФРА-М, 2015. - 480 с.

Manbalarda tashkiliy tuzilmalarning mavjud ikkita asosiy guruhi ajratib ko'rsatiladi:

- byurokratiya kabi tashkiliy tuzilmalar;
- moslashuvchan tashkiliy tuzilmalar<sup>12</sup>.

Tashkiliy tuzilmalarning turlari 1-rasmda ko'rsatildi. Shunday qilib:

- banklar ko'p bosqichli boshqaruv tuzilmasiga ega; shu jumladan aksiyadorlar/ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi, direktorlar kengashi (kuzatuv kengashi), ijroiya organlari, taftish komissiyasi, shuningdek, turli qo'mitalar;

– qonun hujjatlari va bankning ichki me'yoriy hujjatlari organlarni shakllantirish, majlislar o'tkazish va qarorlar qabul qilish tartibini belgilaydi;

- tijorat banklarining tashkiliy tuzilmalarining xilma-xilligi - funksional, bo'linma, loyihali, matritsali va boshqalardan iborat ekan. Shu bilan birga, ko'plab tijorat banklarining tashkiliy tuzilmalari funksional printsip asosida qurilgan.

Dissertatsiya ishining **“Mamlakatimizda bank xizmatlari sohasi rivojlanishining umumiy iqtisodiy tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekistonda bank xizmatlari bozorining umumiy holati iqtisodiy tahlili, O'zbekistonda bank-moliya xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari va Mikrocreditbank Qoraqalpog'iston Respublikasi filiali xizmatlarining amaldagi holati hamda bank xizmatlari ko'rsatishni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribalari qiyosiy tahlil va tadqiq qilingan.

Ta'kidlash kerakki, so'nggi yillar O'zbekiston bank sektori uchun sifat o'zgarishlar davri bo'lmoqda.

### 1-jadval

#### O'zbekiston tijorat banklari kredit va depozitlarining taqqoslama ko'rsatkichlari to'g'risida ma'lumot<sup>13</sup>, (mlrd. so'm)

№	Bank nomi	01.01.2022		01.01.2023		01.01.2024		
		Kreditlar	Depozitlar	Kreditlar	Depozitlar	Kreditlar	Depozitlar	Kreditlarning depozitlarga nisbati
<b>Jami</b>		<b>320 813</b>	<b>143 496</b>	<b>390 049</b>	<b>216 738</b>	<b>471 406</b>	<b>241 687</b>	<b>195%</b>
<b>Davlat ulushi mavjud banklar</b>		<b>275 757</b>	<b>95 904</b>	<b>292 017</b>	<b>119 101</b>	<b>333 298</b>	<b>124 358</b>	<b>268%</b>
1	O'zmilliybank	71 144	20 398	89 410	38 157	99 423	32 920	302%
2	O'zsanoatqurilish bank	42 946	11 011	48 076	14 884	57 124	13 799	414%
3	Agrobank	31 245	11 194	43 846	12 550	54 483	15 389	354%
4	Asaka bank	37 805	12 543	36 742	14 431	39 213	15 485	253%
5	Xalq banki	20 592	11 551	21 666	13 583	24 549	17 044	144%
6	Biznesni rivojlantirish banki	17 004	5 997	20 292	8 826	21 801	9 419	231%
7	Mikrocreditbank	10 850	2 976	13 319	5 409	14 437	6 361	227%
8	Aloqa bank	7 129	5 616	9 162	7 698	10 294	9 227	112%
9	Turon bank	8 012	2 541	9 431	3 493	11 894	4 662	255%
10	Poytaxt bank	84	110	74	72	79	53	150%

<sup>12</sup> Ровенский Ю.А., Русанов Ю.Ю. Банковский менеджмент / Учебник. – Москва: Оригинал макет, 2017. – 480 с.

<sup>13</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

O'tgan yillar davomida biz mamlakatlar hududlarida o'z ishtirokini jadal kengaytirayotgan diversifikatsiyalangan moliyaviy konglomeratlarning shakllanishiga guvoh bo'lmoqdamiz.

Tijorat banklari kichik biznes subyektlarini yanada mustahkamlash uchun qulay ishbiarmonlik muhitini yaratishga katta hissa qo'shib bormoqda. Buning natijasida 2023-yil yakuni bo'yicha rivojlangan tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 13 foizga oshib, 16,40 trln. so'mni tashkil etadi (2022 yilda: 14,57 trln. so'm).

## 2-jadval

### O'zbekiston tijorat banklari kredit va depozitlarining taqqoslama ko'rsatkichlari to'g'risida ma'lumot<sup>14</sup>, (mlrd. so'm)

№	Bank nomi	01.01.2022		01.01.2023		01.01.2024		
		Kreditlar	Depozitlar	Kreditlar	Depozitlar	Kreditlar	Depozitlar	Kreditlarning depozitlarga nisbati
<b>Jami</b>		<b>320 813</b>	<b>143 496</b>	<b>390 049</b>	<b>216 738</b>	<b>471 406</b>	<b>241 687</b>	<b>195%</b>
<b>Boshqa banklar</b>		<b>45 055</b>	<b>47 592</b>	<b>98 032</b>	<b>97 636</b>	<b>138 107</b>	<b>117 329</b>	<b>118%</b>
1	Ipoteka-bank	28 901	11 965	32 658	16 432	37 264	17 773	210%
2	Kapital bank	7 554	11 534	15 408	24 225	26 586	30 102	88%
3	Hamkorbank	9 280	4 086	11 423	6 902	15 854	7 971	199%
4	Ipak yo'li bank	6 452	3 819	8 065	6 588	11 701	7 991	146%
5	Orient Finance bank	3 378	2 847	5 140	6 893	8 448	8 869	95%
6	Invest Finance bank	3 649	3 981	4 777	5 769	6 431	7 406	87%
7	Trast bank	2 708	5 140	3 496	6 293	4 947	6 743	73%
8	KDB bank O'zbekiston	1 524	6 762	2 032	7 565	2 651	6 240	42%
9	Asia Alliance bank	1 906	2 286	2 174	4 956	3 712	6 080	61%
10	Tenge bank	1 783	314	2 474	1 553	4 208	2 225	189%
11	Davr bank	2 058	1 022	3 092	1 823	5 004	2 741	183%
12	TBC bank	275	571	1 507	1 380	3 730	2 682	139%
13	Anor bank	545	682	2 146	2 995	3 169	3 720	85%
14	Ziraat Bank Uzbekistan	738	960	1 098	1 294	1 595	1 979	81%
15	Universal bank	764	1 138	870	1 417	1 162	1 706	68%
26	Oktobank			341	665	249	1 648	15%
27	Garant bank			1 132	784	922	997	92%
28	Apeks bank					29	185	16%
29	Eron Soderot banking ShB	14	30	21	30	22	43	50%
30	Uzum bank			0,0	7	50	10	481%
31	Hayot bank					30	148	20%
32	Madad invest bank	141	29	173	63	292	50	585%
33	Smart bank					0,3	10	3%
34	Yangi bank					46	3	1677%
35	AVO bank			6	0,7	7	7	93%

Tahlil qilinayotgan davrda bank sektori aktivlarining o'sishi bilan bir qatorda depozit xizmatlari ham oshgan. Banklar depozit bazasining o'sish dinamikasi sezilarli o'sish sur'atlarini ko'rsatadi. 2023-yil oxirida tartibga soluvchi tomonidan

<sup>14</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

belgilangan eng kam ustav kapitali talabiga javob bermagan banklar orasida SB Saderat Iran va Poytaxt Bank AJ kabilarni aytish mumkin. Aksincha faol yetakchilikni davlat ulushi mavjud banklardan O‘zmilliybank, O‘zsanoatqurilish bank, Agrobank, Asaka bank, Xalq banki va shuningdek, boshqa banklardan Ipoteka-bank, Kapital bank, Hamkorbank, Ipak yo‘li bank egallamoqda (1 va 2-jadvallarga qarang).

Umuman olganda, tadqiqotlar ko‘rsatmoqdaki 2023-yil oxirida erishilgan milliy bank tizimi faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari darajalari: banklar umumiy kapitalining yetarliligi, banklarning likvidligi, depozitlar hajmining dinamikasi, hajmning o‘zgarishi kredit qo‘yilmalari yuqori darajadagi baholashga to‘liq mos keladi.

Dissertant fikricha, istiqbolda Qoraqalpog‘iston Respublikasida bank xizmatlarini rivojlantirishni quyidagi yo‘nalishda ustuvor amalga oshirilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaydi, jumladan:

- mintaqada moliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda “oilaviy tadbirkorlik” dasturlari doirasida maqsadli loyihalar uchun mikrokreditlar ajratish muhim. Ya’ni, mintaqada o‘zini-o‘zi band qilgan jismoniy shaxslarga qarz oluvchining tadbirkorlik faoliyati samaradorligi, kreditning maqsadli ishlatilishi hamda kreditlardan tomorqani rivojlantirishning parrandachilik, quyonchilik, chorvachilik, asalarichilik, baliqchilik va ixcham issiqxona kabi yo‘nalishlarida foydalanishi uchun garovsiz ajratilishiga ruxsat berilishi zarur. So‘nggi yillarda bank sektorining asosiy ko‘rsatkichlari sezilarli darajada o‘smoqda. Ushbu o‘shishga sohada raqamli texnologiyalarning transformatsiyasi sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Ta’kidlash kerakki, O‘zbekistonda bank tizimini isloh qilish hal qiluvchi bosqichga ko‘tarilgani O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “2020-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-son farmonida yaqqol dalolat beradi. Farmonda tijorat banklari oldiga qo‘yilgan asosiy vazifa ularni kapitallashtirish va davlat ulushi bo‘lgan banklarni, asosan, xorijiy investorlarga xususiylashtirishdan iborat. Mazkur farmon asosida “2020–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi”<sup>15</sup> tasdiqlandi. Strategiya 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga oid Davlat dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan. Shuningdek, milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, bank-moliya va soliq siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta’minlash bo‘yicha ta’sirchan choralar ko‘rildi<sup>16</sup>.

“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 5-maydagi PF-3750-son Qarori va Vazirlar Mahkamasining “Aksiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to‘g‘risida”gi 78-son qarori bilan tashkil

<sup>15</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://www.lex.uz>.

<sup>16</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://www.lex.uz>.

etilgan. Bank missiyasi – asosan kichik biznes, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, yakka tartibdagi mehnat faoliyatini, kam ta'minlanganlarni qo'llab-quvvatlash, hunarmandchilik va kasanachilikni faollashtirish yo'li bilan yangi ish o'rinlarini yaratish, ayniqsa qishloq joylarda aholi keng tabaqalarining mikromoliyaviy xizmatlardan bahramand bo'lishini ta'minlash uchun moliyaviy mablag'lar berish hisoblanadi. O'zbekistonda bugungi kunda "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki mijozlari 1493982 nafardan iborat bo'lib, umumiy kapitali 3 666 063 mln. so'mni tashkil etadi, jami 85 ta bank xizmatlari markazlari orqali 8 061 218 mln. so'm milliy valyutada kreditlar berilgan va bank foydasi 43,5 mlrd. so'mni tashkil etadi<sup>17</sup>.

"Mikrokreditbank" ATB Qoraqalpog'iston Respublikasi filialining infratuzilmasi va asosiy ko'rsatkichlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, 01.01.2024 yil holatiga bank filiali mijozlari 12466,0 nafarni tashkil etib, jami 11 ta bank xizmatlari markazlari mavjud. Shu jumladan, Nukus shahrida 1 ta bank xizmatlari ofisi hamda 2 ta Jayxun va Bo'zatov bank xizmatlari markazi, To'rtkul tumanida 2 ta To'rtkul va Bunyodkor bank xizmatlari markazi, Amudaryo tumanida 2 ta Mang'it va Qipchoq bank xizmatlari markazi, shuningdek Ellikqal'a, Xojayli, Chimboy, Mo'ynoq tumanlarida 1 tadan hududiy bank xizmatlari markazlari faloiyat yuritmoqda. Bu yerda aytish kerakki, yuqorida nomlari qayd etilganlardan Jayxun, Bo'zatov, Chimboy, Bunyodkor, Qipchoq va Mo'ynoq kabi bank xizmatlari markazlari 2024 yildan boshlab alohida faoliyat boshlamoqda. Bank xodimlari umumiy soni 236 nafarni tashkil etib, jami 120506 dona plastik kartalar emissiya qilingan, shundan 55075 dona Uzcard va 65431 dona Humo kartalaridir. Xizmat ko'rsatuvchi bankomatlar soni 54 ta bo'lib, savdo terminallari soni 2222 tani tashkil etadi<sup>18</sup>.

"Mikrokreditbank" ATB Qoraqalpog'iston Respublikasi filiali tomonidan 2023 yilda jami berilgan kreditlar 534 276,0 mln. so'mni tashkil etib, shundan:

1. Kichik biznes subyektlariga "Har bir oila - tadbirkor" dasturi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.06.2018 yildagi PQ-3777-son, "Har bir oila-tadbirkor" dasturini amalga oshirish to'g'risidagi qarori<sup>19</sup>, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.12.2021 yildagi PQ-55-son "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori<sup>20</sup> hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.01.2023 yildagi PQ-39-son "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari<sup>21</sup> asosida 232418,0 mln. so'm kreditlar berilgan.

2. Chakana biznes orqali berilgan kreditlar 132 197,0 mln. so'm.

3. Shuningdek, 169 661,0 mln. so'mlik ijtimoiy kreditlar, jumladan:

<sup>17</sup> "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat bankining <https://mkbank.uz> sayti ma'lumotlari asosida olingan.

<sup>18</sup> "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat bankining <https://mkbank.uz> sayti ma'lumotlari asosida olingan.

<sup>19</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.06.2018 yildagi PQ-3777-sonli, "Har bir oila - tadbirkor" dasturini amalga oshirish to'g'risidagi qarori. <https://www.lex.uz>.

<sup>20</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.12.2021 yildagi PQ-55-sonli "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. <https://www.lex.uz>.

<sup>21</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.01.2023 yildagi PQ-39-sonli "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. <https://www.lex.uz>.

- “Yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash dasturi” doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.10.2020 yildagi PQ-4862-son “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori<sup>22</sup> asosida kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish bo‘yicha nodavlat ta‘lim tashkilotlari kurslarini muvaffaqiyatli tamomlab, ularning maxsus sertifikatini olgan yoshlarga 3 yildan 7 yilgacha jismoniy shaxslar uchun 33,0 mln. so‘mgacha va yuridik shaxslar uchun 300,0 mln. so‘mgacha yuqorida qayd etilgan faoliyat yo‘nalishidan kelib chiqib;

- “Hunarmandchilikni rivojlantirish” dasturi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2021 yildagi PQ-77-son “Hunarmandchilik faoliyatini qollab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori<sup>23</sup> asosida 18 oydan 36 oygacha 300,0 mln. so‘mgacha «Hunarmand» uyushmasi a‘zolariga ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun asbob-uskuna, ehtiyot qismlar va xom ashyo materiallarini xarid qilishga; hunarmandchilikni rivojlantirish markazlari, «usta-shogird» maktablarini tashkil etish, uy-muzeylar va ustaxonalar qurish yoki shu maqsadlarda bino va inshootlar sotib olishga, shuningdek aylanma mablag‘larini to‘ldirishga berilgan kreditlardir (3-jadval).

### 3-jadval

#### “Mikrokreditbank” ATB Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali tomonidan berilgan kreditlar, omonotlar va depozitlar to‘g‘risida ma‘lumot<sup>24</sup>

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	01.01.2020	01.01.2021	01.01.2022	01.01.2023	01.01.2024
<b>Berilgan kreditlar, shundan</b>	mln. so‘m	<b>115 424,0</b>	<b>190 548,0</b>	<b>289 547,0</b>	<b>515 744,0</b>	<b>534 276,0</b>
Kichik biznes	mln. so‘m	56 207,0	98 730,0	149 324,0	209 833,0	232 418,0
Chakana biznes	mln. so‘m	35 628,0	58 959,0	94 756,0	151 786,0	132 197,0
Ijtimoiy kreditlar	mln. so‘m	23 589,0	32 859,0	45 467,0	154 125,0	169 661,0
<b>Omonotlar, shundan</b>	mln. so‘m	<b>46 100,0</b>	<b>63 350,6</b>	<b>79 043,1</b>	<b>157 989,4</b>	<b>279 137,0</b>
Talab qilib olinguncha	mln. so‘m	356,0	475,6	607,1	579,4	31 771,0
Jamg‘arma va muddatli omonotlar	mln. so‘m	45 744,0	62 875,0	78 436,0	157 410,0	247 366,0
<b>Depozitlar, shundan</b>	mlrd. so‘m	<b>82,6</b>	<b>95,1</b>	<b>143,1</b>	<b>233,7</b>	<b>405,7</b>
Jismoniy shaxslarning depozitlari	mlrd. so‘m	35,5	48,6	79,0	157,4	279,1
Yuridik shaxslarning depozitlari	mlrd. so‘m	47,1	46,5	64,1	76,3	126,6


Mijozlardan turli omonotlarga jami 279 137,0 mln. so‘m qabul qilinib, bank depozitlari 405,7 mlrd. so‘mni tashkil etadi, shundan 279,1 mlrd. so‘m jismoniy shaxslarning depozitlari hamda 126,6 mlrd. so‘m yuridik shaxslarning depozitlaridir. Bank tomonidan tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko‘rsatish uchun yangi tashkil

<sup>22</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.10.2020 yildagi PQ-4862-sonli “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. <https://www.lex.uz>.

<sup>23</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2021 yildagi PQ-77-sonli “Hunarmandchilik faoliyatini qollab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. <https://www.lex.uz>.

<sup>24</sup> “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining <https://mkbank.uz> sayti ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

etilayotgan korxonalarni texnologik jihozlash uchun va yuqorida ta’kidlangan maqsadlarda imtiyozli kreditlarning ajratilishi rag‘batlantiruvchi omillar bo‘lmoqda, buning natijasida esa xizmatlar ko‘rsatishning yuqori sur‘atlari ta’minlanib hududda yalpi ichki mahsulot ulushi ham ortmoqda (2-rasm).



## 2-rasm. “Mikrokreditbank” ATB Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali tomonidan berilgan kreditlar, omonotlar va depozitlarning qiyosiy dinamikasi<sup>25</sup>

Xulosa qilib aytganimizda, bank xizmatlarini ko‘rsatishning barqaror o‘shishi, o‘z navbatida, hududlarda aholi turmush darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bugungi kunda O‘zbekiston hududlarida bank xizmatlari va servisidan foydalanishni yanada jadal rivojlantirishni ta’minlash, zamonaviy bank xizmatlari bozorini yaratish, xizmatlarning yangi turlarini ishlab chiqarish va iste’mol qilishning oqilona infratuzilmasini shakllantirish, mamlakatimizda aholi turmush darajasi va sifatini oshirishni ta’minlashda davlat dasturlarining ustuvor yo‘nalishlari bo‘lib hisoblanadi.

Tahlillarni yanada aniqlashtirish maqsadida “Mikrokreditbank” ATB Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali tomonidan berilgan kreditlarning hududiy bank xizmatlari markazlari kesimida taqsimlanishini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, unda hududiy bo‘linmalardan yuqori faollik Nukus shahriga to‘g‘ri kelmoqda. Undan keyingi o‘rinlar To‘rtkul, Mang‘it, Ellikqal’a va Xo‘jayli tumani bank xizmatlari markazlariga to‘g‘ri keladi (4-jadvalga qarang).

Bu o‘z navbatida, bir qator obyektiv va subyektiv omillar bilan bog‘liq bo‘lib, qishloq joylardagi mijozlarning shahar markazlaridagi bank xizmatlaridan ko‘proq foydalanayotganligini ko‘rsatadi.

Dissertant fikricha, qishloq joylarda istiqbolda bank xizmatlarini rivojlantirishda, xususan:

- hudud ixtisoslashuvi va infratuzilmaviy ta’minlanganlik darajasini e’tiborga olgan holda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlarini uzoq muddatga ijara asosida o‘z biznesini tashkil etishga kreditlar ajratish maqsadga muvofiq bo‘ladi;

- va shuningdek, dasturlar bo‘yicha kreditlarni optimallashtirishga ko‘ra ular doirasidagi so‘ndirilgan kreditlar hisobidan shakllangan resurslarni mazkur hududdagi loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltirish lozim.

<sup>25</sup> “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankinging <https://mkbank.uz> sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

**“Mikrokreditbank” ATB Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali tomonidan  
berilgan kreditlarning hududiy bank xizmatlari markazlari kesimida  
taqsimlanishi<sup>26</sup>**

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	01.01.2020	01.01.2021	01.01.2022	01.01.2023	01.01.2024
<b>Berilgan kreditlar, jami</b>	mln. so‘m	<b>115 424,0</b>	<b>190 548,0</b>	<b>289 547,0</b>	<b>515 744,0</b>	<b>534 276,0</b>
<b>Nukus</b>	mln. so‘m	50 557,0	78 469,6	126 790,3	205 813,5	225 132,0
jismoniy shaxslarga	mln. so‘m	20 466,0	35 856,0	52 879,0	82 954,0	95 616,0
yuridik shaxslarga	mln. so‘m	30 091,0	42 613,6	73 911,3	122 859,5	129 516,0
<b>To‘rtkul</b>	mln. so‘m	29 744,0	49 090,3	74 568,2	132 806,0	99 618,0
jismoniy shaxslarga	mln. so‘m	12 850,0	19 875,0	31 452,0	58 965,0	32 615,0
yuridik shaxslarga	mln. so‘m	16 894,0	29 215,3	43 116,2	73 841,0	67 003,0
<b>Ellikqal‘a</b>	mln. so‘m	12 425,0	25 513,7	31 160,3	55 496,5	67 575,0
jismoniy shaxslarga	mln. so‘m	5 652,0	9 865,0	12 854,0	18 745,0	29 850,0
yuridik shaxslarga	mln. so‘m	6 773,0	15 648,7	18 306,3	36 751,5	37 725,0
<b>Mang‘it</b>	mln. so‘m	10 852,0	22 916,7	27 320,1	68 717,9	80 280,0
jismoniy shaxslarga	mln. so‘m	4 756,0	8 963,0	11 966,0	32 654,0	35 652,0
yuridik shaxslarga	mln. so‘m	6 096,0	13 953,7	15 354,1	36 063,9	44 628,0
<b>Xo‘jayli</b>	mln. so‘m	11 846,0	14 557,7	29 708,1	52 910,1	61 671,0
jismoniy shaxslarga	mln. so‘m	5 238,0	6 541,0	11 745,0	23 658,0	27 859,0
yuridik shaxslarga	mln. so‘m	6 608,0	8 016,7	17 963,1	29 252,1	33 812,0

Ushbu takliflar o‘z navbatida, aholining tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, mahallalarda kichik biznes va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, yoshlar va xotin-qizlarni daromadli mehnat bilan band qilish borasidagi tadbirlarni tizimli ravishda davom ettirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiya ishining **“Qoraqalpog‘iston Respublikasida bank xizmatlarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari va istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida Qoraqalpog‘iston Respublikasida bank xizmatlarini rivojlantirishning istiqbol davrlarga ilmiy prognozi va shuningdek hududda bank xizmatlari bozorini rivojlantirishda xizmatlar sifatini baholash masalalari tadqiq qilingan hamda tegishli xulosalar, ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Xorijiy va mahalliy ekspertlarning qayd etishicha, so‘nggi yillar davomida respublikada asosiy tamoyil - ixtisoslashuvdan uzoqlashish va bank faoliyatida universallashtirishni chuqurlashtirish kuzatilmoqda. Bu esa bank xizmatlari operatsiyalari mazmuni va kredit munosabatlari mohiyatini oldindan belgilab beradi. Shu boisdan ham istiqbolda Qoraqalpog‘iston Respublikasida bank xizmatlarida depozitlar bilan kreditlar hajmining ilmiy prognozi eng muhim dolzarb masala sanaladi. Ushbu yuzasidan 5-jadvalda keltirilgan iqtisodiy statistik ma‘lumotlar asosida “Mikrokreditbank” ATB Qoraqalpog‘iston Respublikasi filialida berilgan kreditlar va depozitlarining o‘shishi hamda bank xizmatlari hajmining kelgusi davrlarga mo‘ljallangan prognozining variantli ssenariylari ishlab chiqildi.

“Mikrokreditbank” ATB Qoraqalpog‘iston Respublikasi filialida ko‘rsatiladigan bank xizmatlarning 2030-yilgacha mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlarida berilgan kreditlar hajmi har ikkita usullar bo‘yicha hisoblangan variant ssenariysida ham

<sup>26</sup> “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining <https://mkbank.uz> sayti ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

o‘shish tendensiyasi mavjud. Lekin 1-variant ssenariysida olingan kreditlar hajmi prognozi ko‘rsatkichlarida yuqori sur‘atda o‘shish kuzatilgan.

## 5-jadval

### “Mikrokreditbank” ATB Qoraqalpog‘iston Respublikasi filialida berilgan kreditlar va depozitlar hajmining istiqbol davrlarga prognoz ko‘rsatkichlariga ta‘sir etuvchi omillar<sup>27</sup>


Yillar	Mikrokreditbank ATB QR filialida berilgan kreditlar, (mlrd. so‘m)	Mikrokreditbank ATB QR filiali depozitlari, (mlrd. so‘m)	Mikrokreditbank ATB QR filiali mijozlari soni, (dona)	QRda jami xizmatlar hajmining o‘shish sur‘ati, (% da)	QR YaHMda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi, (% da)
2010	10,8	8,7	1215	116,2	63,6
2015	35,8	31,9	3624	118,5	67,5
2016	54,8	42,6	5854	113,2	61,0
2017	65,9	56,8	6785	108,3	55,7
2018	86,2	65,9	8206	113,2	54,9
2019	115,4	82,6	9596	112,8	54,7
2020	190,5	95,1	10787	106,1	56,2
2021	289,5	143,1	11696	121,5	56,3
2022	515,7	233,7	12183	116,0	55,8
2023	534,2	405,7	12466	110,8	58,7

Bu, o‘z navbatida, hudud iqtisodiyoti rivojlanishi bilan bank xizmatlarida kreditlash ijobiy tendensiyalari faollashishi natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi, ishbilarmonlik muhiti yaxshilanishi hamda boshqa omillarga ko‘proq bog‘liq izohlanadi. Sababi shunga nisbatan natijaviy omillardan Mikrokreditbank ATB QR filiali depozitlari hajmi prognozida birinchi variant ssenariysida yuqori raqamlarda o‘shishga ega bo‘lib, buni prognoz qilingan yillar orasidagi miqdorlar intervalidan ko‘rish mumkin, biroq ikkinchi variant ssenariysida aksincha, kamayishni ko‘rishimiz mumkin. Ushbu holat tegishligicha bank mijozlari sonining o‘shish sur‘atiga ham xos (3 va 4-rasmlarga qarang).

Prognoz ma‘lumotlaridan aytishimiz mumkinki, “Mikrokreditbank” ATB Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali moliyaviy xizmatlarida kreditlarning 1-variant ssenariysida 2025-yil uchun olingan prognoz ko‘rsatkichlarida kreditlash hajmi 863,9 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2026-yilda 1040,2 mlrd. so‘m, 2027-yilda 1232,4 mlrd. so‘m va 2030-yilga kelib 1895,5 mlrd. so‘mni tashkil etadi va 2030-yil 2025-yilga nisbatan (1031,6 mlrd. so‘mga) 54,4 foiz punktga o‘shish mumkinligini ko‘ramiz. Bu o‘z navbatida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi PQ-39-son Qaroriga 1-Ilovada belgilangan Qoraqalpog‘iston Respublikasi uchun 2023-yilda jami 950,0 mlrd. so‘m yo‘naltirilgan mablag‘lar, shundan 457 mlrd. so‘m avval berilgan kreditlarning so‘ndirilishi hisobidan, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hisobidan 342,0 mlrd. so‘m, shuningdek vakolatli banklarning resurslari hisobidan 151,0 mlrd. so‘m ajratilib, 2023-yilda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasidagi loyihalarni moliyalashtirishning hududlar kesimidagi maqsadli parametrlarining bajarilishi bilan

<sup>27</sup> “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining <https://mkbank.uz> sayti va Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat statistika boshqarmasining <https://www.qrstat.uz/> sayti ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

izohlanadi. Bunda, dasturlarni moliyalashtirish uchun Davlat budjeti, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hamda boshqa jamg‘armalardan ajratilgan resurslarning 2023-2024-yillarda so‘ndiriladigan qismi har oyda vakolatli banklarga dasturlar doirasidagi loyihalarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi belgilab qo‘yilgan.




**3-rasm. “Mikrokreditbank” ATB Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali kreditlari va depozitlari hajmining 2030-yilgacha prognozi grafigi<sup>28</sup>**

Mazkur usul bo‘yicha “Mikrokreditbank” ATB Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali depozitlari hajmi 2025-yil uchun olingan prognoz ko‘rsatkichlarida 567,5 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2026-yili 696,0 mlrd. so‘m, 2027 yili 838,1 mlrd. so‘m va 2030-yilga kelib bu ko‘rsatkich 1345,3 mlrd. so‘mni tashkil etadi va ushbu davrga, ya‘ni 2030-yil 2025-yilga nisbatan (777,8 mlrd. so‘mga) 57,8 foiz punktga o‘shish ehtimoli mavjud. Ushbu orqali biz, uzoq muddatga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-son Farmoniga muvofiq banklarning operatsion va kapital xarajatlari optimallashtirilishi: birinchi navbatda, yuridik va jismoniy shaxslarning milliy valyutadagi depozitlarini yanada oshirish, shuningdek, banklarning xalqaro kapital bozorlariga chiqishi hisobiga bank tizimiga qo‘shimcha resurslarni jalb qilish orqali kichik va o‘rta biznes subyektlariga ko‘rsatilayotgan xizmatlarning ko‘lami va sifatini, shu jumladan tadbirkorlik subyektlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda xizmat ko‘rsatish orqali moliyaviy xizmatlar ommabopligi oshirilishini amaliy bajarilishini taxmin qilishimiz mumkin.

Ilmiy jihatdan qaraganda, ushbu holatni birinchi va ikkinchi variantlar ssenariylari bo‘yicha o‘tgan chiziqning orasidagi farqni ifodalovchi o‘zgarish oralig‘ining yo‘lak masofalaridan ham ko‘rishimiz mumkin. Lekin, polinomial trend usulida depozitlar prognozining yuqori o‘shish sur‘ati mavjud. Mazkur holatni, Qoraqalpog‘iston Respublikasida bank xizmatlari rivojlanishi natijasida hudud YaHMda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushining oshishi bilan izohlashimiz mumkin.

<sup>28</sup> Tadqiqot natijalari bo‘yicha muallif tayyorlagan.



**4-rasm. “Mikrokreditbank” ATB Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali mijozlari sonining 2030-yilgacha prognozi grafiği<sup>29</sup>**

Tadqiqotlar ko‘rsatmoqdaki, Qoraqalpog‘iston Respublikasida bank xizmatlari moliyaviy bozori sig‘imining tuzilgan ilmiy prognozi bizga mavjud bozorning rivojlanishi bank xizmatlari hajmining oshishi bilan birga bo‘lishini anglatadi. Biroq, ikkinchi variantlar ssenariy bo‘yicha “Mikrokreditbank” ATB Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali depozitlari hajmining kam bo‘lishini to‘xtatuvchi omil sifatida qaramoq lozim. Prognoz natijalarini tekshirishda tenglamalar tizimini yechish natijalariga asoslanib, natijaviy ko‘rsatkich darajasini oshirish uchun omillarning alohida ahamiyatlilik darajasini tavsiflovchi regressiya koeffitsientlarining olingan qiymatlarini izohlab o‘tamiz. Agar ikkita ta‘sir etuvchi omil o‘rtasida juft korrelyatsiya koeffitsienti qiymati 0,7 dan katta bo‘lsa, multikollinearlik mavjud bo‘ladi. Bizning ma‘lumotlarimizdan aytish mumkinki, ta‘sir etuvchi omillar o‘rtasida bog‘lanish zichliklari  $R^2 = 0,9624$  ni tashkil etib 0,7 dan yuqori. Demak juft korrelyatsiya koeffitsientlari bo‘yicha xulosa qiladigan bo‘lsak, ta‘sir etuvchi omillar o‘rtasida multikollinearlik mavjud. Bu ushbu ikki omil o‘rtasida bog‘lanish mavjudligini hamda juft korrelyatsiya koeffitsientni ishonchli ekanligini anglatadi.

Shunday qilib, Mikrokreditbank ATB QR filialida berilgan kreditlar hajmining o‘shishi hududda jami xizmatlar hajmining o‘shishiga eng katta ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Mikrokreditbank ATB QR filiali depozitlari hajmining o‘shish ko‘rsatkichi bo‘lsa ahamiyati va samaradorligi bo‘yicha keyingi o‘rinni egallaydi.


Demakki 2022-2026-yillarda amalga oshiriladigan asosiy vazifalarda Qoraqalpog‘iston Respublikasida tadbirkorlikni rivojlantirish orqali, 100 mingta yangi ish o‘rni yaratiladi. Bunda, hududda mavjud jami 422ta mahallaning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, oilaviy tadbirkorlik dasturlariga har yili 650 mlrd. so‘m kreditlar ajratiladi va shuningdek, 2022-2026-yillarda 60 trln. so‘mlik (oldingi yillarga nisbatan qariyb 5 barobar ko‘p) jami 2352ta investitsiya loyihalari amalga oshirilishi nazarda tutilgan<sup>30</sup>. Shunday ekan, 2025-2030-yillar uchun ishlab chiqilgan optimistik prognozga ko‘ra, hududda bank xizmatlari iste‘moli hajmining o‘tgan yillardagi rivojlanishidagi umumiy o‘shish tendensiyalari saqlab qolinishi va davom etishi shubha to‘g‘dirmaydi.

<sup>29</sup> Tadqiqot natijalari bo‘yicha muallif tayyorlagan.

<sup>30</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni. <https://www.lex.uz>.

Iqtisodiy adabiyotlarda bank xizmatining sifatini bank xizmatining mijozlarning ehtiyojlarini qondirishga imkoniyat beruvchi xususiyatlar to‘plami sifatida ko‘rib chiqadigan yondashuv keng tarqalgan.

Sifatni boshqarishga texnologik yondashuv dunyoda eng tan olingan bo‘lib, uning asosida xalqaro sifat standartlarida sifat menejmenti tizimining modellari yaratilgan (5-rasm).



**5-rasm. Sifatni boshqarish tizimining modeli**<sup>31</sup>

Ta’kidlash kerakki, kredit tashkiloti faoliyatining barqarorligi ko‘p jihatdan bank xizmatlarining sintetik sifati mezoni sifatida uning moliyaviy barqarorligiga bog‘liq bo‘ladi. Odatda bank xizmatlarining sifati TQM (Total Quality Management) konsepsiyasi va xalqaro standartlar ISO 9000 seriya va ISO 14000 seriyali 2000-yilgi versiyasi talablariga muvofiq bo‘lib, bu bank xizmatining o‘ziga xos xususiyatlari yig‘indisining talablarga javob berish darajasini anglatadi. Shu munosabat bilan, bank xizmatlarining sifati yomon (salbiy), - yaxshi (ijobiy) yoki a’lo bo‘lishi mumkin. Bank xizmatlarining xususiyatlari mulkiy yoki tayinlangan, sifatli yoki miqdoriy bo‘lishi mumkin.

Bank xizmatlarining asosiy farqlovchi xususiyati, P.Rouzning fikricha, xizmatlar sifati sohasini tashkil etuvchi kredit axborotining tarmoq harakati hisoblanadi<sup>32</sup>. Demak xizmatlar sifati bo‘yicha axborot paradigmasini ishlab chiqish talablarini amalga oshirish bank xizmatlari sifatini dinamik iqtisodiy toifa sifatida ko‘rib chiqishni o‘z ichiga oladi.

Endi, biz yuqorida ko‘rib o‘tilgan statik model asosida shakllantirilgan bank xizmatlari samaradorligining optimallik sharti bo‘yicha “Mikrokreditbank” ATB Qoraqalpog‘iston Respublikasi filialining 2022-2023 yillardagi bank aktivlarini bank tomonidan berilgan kreditlariga ichki foydalilik darajasi bo‘yicha samaradorligini moliyaviy tahlil qilamiz.

Dinamik holatda,  $t_1, t_2, \dots, t_n$  onlarida moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish loyihasi bo‘yicha Mikrokreditbank ATB Qoraqalpog‘iston Respublikasi filialida berilgan kreditlar  $K_1, K_2, \dots, K_n$  bo‘lsin, loyihani amalga oshirishga yo‘naltirilgan resurslar,

<sup>31</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>32</sup> Akerlof G. The market for Lemons: Quality Uncertainty and the market mechanism // Quarterly Journal of Economics. 1970. August. V. 85. P. 488-500.

bank aktivlari  $A_1, A_2, \dots, A_n$  bo'lsin, u holda ichki foydalilik normasiga asosan quyidagicha bo'ladi:

$$K_1(1+i)^{-t_1} + K_2(1+i)^{-t_2} + \dots + K_n(1+i)^{-t_n} = A_1(1+i)^{-t_1} + A_2(1+i)^{-t_2} + \dots + A_n(1+i)^{-t_n}; (1)^{33}$$

Matematik usullarni bajarish orqali quyidagi natijalar olindi (6-jadval).

**6-jadval**

**“Mikrokreditbank” ATB Qoraqalpog‘iston Respublikasi filialida berilgan kreditlar samaradorligining qiyosiy tahlili<sup>33</sup>**

“Mikrokreditbank” ATB Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali aktivlari, (mlrd. so‘m)		“Mikrokreditbank” ATB Qoraqalpog‘iston Respublikasi filialida berilgan kreditlar, (mlrd. so‘m)							Samaradorlik, (%)	Dinamik holat ssenariysi
		joriy	Prognoz							
2022	2023	2024	2025	2026	2027	2028	2029	2030	E	
$1 (A_1)$	$2 (A_2)$	$3 (K_3)$	$4 (K_4)$	$5 (K_5)$	$6 (K_6)$	$7 (K_7)$	$8 (K_8)$	$9 (K_9)$		
944,3	1094,6	703,7	863,9	1040,2	1232,4	1440,8	1665,1	1895,5	10	1-variant
944,3	1094,6	703,7	572,6	630,2	680,9	743,5	800,2	856,8	-1,2	2-variant

Demak, Qoraqalpog‘iston Respublikasida moliyaviy xizmatlar zaxiralari va ulardan foydalanish yuzasidan Mikrokreditbank ATB Qoraqalpog‘iston Respublikasi filialida 2022-2023 yillar davrida bank aktivlarining bank tomonidan berilgan kreditlarning prognoz ko‘rsatkichlariga ichki foydalilik bo‘yicha samaradorligi 1-variant ssenariysida “10” foizni tashkil etdi. Buni yaxshi (ijobiy) deb baholaymiz. Sababi 2-variant ssenariysida samaradorlik “-1,2” foizni tashkil etib, ko‘rsatkich manfiy belgiga ega bo‘ldi.

Buni tadqiqotimizda ishlab chiqilgan Mikrokreditbank ATB Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali tomonidan berilgan kreditlar prognozining 2-variant ssenariy ma’lumotlari ham isbotladi. Xususan, 2025-yil prognoz ma’lumotlarida kreditlar hajmining o‘shish sur‘ati past bo‘lib, faqatgina 2027 va 2028 yillarga borib jadal o‘shish boshlanishi kuzatiladi. Shunga nisbatan Mikrokreditbank ATB Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali depozitlari prognozining 2-variant ko‘rsatkichlarida esa, aksincha holat bo‘lib 2025, 2026 va 2027 yillar uchun depozitlar hajmining kamayishini ko‘rishimiz mumkin. Bu o‘z navbatida, bank aktivlari bilan kredit resurslari samaradorligi o‘rtasidagi proportsional bog‘liqlik mavjud ekanligidan dalolat beradi.

<sup>33</sup> Habibullaev I. Iqtisodiy matematik usullar va modellar: O‘quv qo‘llanma / O‘z.R. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: Tafakkur-Bo‘stoni, 2012. - 112 b.

<sup>33</sup> Tadqiqot natijalari bo‘yicha muallif tomonidan tuzilgan.

## XULOSA

Dissertatsiya ishida olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Bugungi kunda zamonaviy bank xizmatlari turlarining xilma-xilligiga qaramay, ko'plab tijorat banklarining tashkiliy tuzilmalari funksional yo'nalishlar bo'yicha qurilgan. Bunda faoliyatning universalligi tamoyilini amalga oshirish, shuningdek, qonunchilik va tartibga solish talablariga rioya qilish zarurati tufayli banklar funksional birliklarning deyarli bir xil ro'yxatiga ega. Bankning katta-kichikligi, faoliyat ko'lami, rivojlanish strategiyasiga ko'ra, bu bo'linmalar boshqarmalar, bo'limlar, direksiyalar shaklida tashkil etilmoqda.

2. O'zbekiston hududlari iqtisodiyotini rivojlantirishda bank xizmatlarini rivojlantirishga alohida yondashishni taqozo qiladi. Chunki, mamlakatimizda hanuzgacha hududlar iqtisodiy rivojlanishi darajasi bir-biridan farqlanmoqda. Bu, hududda tadbirkorlik subyektlari va boshqada omillar orqali amalga oshirilayotgan, iqtisodiyot tarmoqlarining o'sish tendensiyalari va shuningdek mavjud resurslarni jalb qilishda istiqbol davr uchun moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda ustuvor yo'nalishlarni belgilab olishda inobatga olinishi kerak.

3. Tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan bank xizmatlari tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda banklar o'z mijozlariga taklif etayotgan masofaviy xizmat turlarining ko'lami anchaga kengaygan. Birgina MKB Mobile ilovasi orqali mijoz bankka kelmasdan turib bank xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Bular overdraft kreditlarini olishi va kreditlarni so'ndirib borish, onlayn omonatlar ochishi va oladigan mablag'larini hisoblab borishi, milliy valyutadagi mablag'larini xorijiy valyutaga erkin konvertatsiya qilish imkoniga ega.

4. Mamlakat hududlarida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga yo'naltirilayotgan tadbirkorlik subyektlarini kreditlash hajmini oshishi, kredit mablag'laridan foydalanayotgan turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidagi mijozlar miqdorining ko'payishi banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona shakllantirish va optimal kredit portfeli asosida joylashtirishni taqozo etadi. Mazkur kreditlar o'z navbatida, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hamda fermerlikni rivojlantirish, yakka tartibdagi mehnat faoliyatini, oilaviy biznes va kasanachilikni faollashtirish yo'li bilan yangi ish o'rinlarini yaratish, ayniqsa qishloq joylarda aholi keng tabaqalarining mikromoliyaviy xizmatlardan bahramand bo'lishini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

5. Mikrocreditbank ATB Qoraqalpog'iston Respublikasi filiali tomonidan berilgan kreditlarning hududiy bank xizmatlari markazlari kesimidagi taqsimlanishi tahlil qilinganda, hududiy bo'linmalardan yuqori faollik Nukus shahriga to'g'ri keladi. Keyingi o'rinlarni To'rtkul, Mang'it, Ellikqal'a va Xo'jayli tumani bank xizmatlari markazlari egallamoqda. Bu bir qator obyektiv va subyektiv omillar bilan bog'liq bo'lib, hududda qishloq joylarda moliyaviy xizmatlarni ko'rsatishni rivojlantirish zarurligi dolzarbligini anglatadi.

6. Bank xizmatlarini ko'rsatishning barqaror o'sishi, o'z navbatida, hududlarda aholi turmush darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Buning uchun O'zbekiston hududlarida bank xizmatlari va servisidan foydalanishni yanada jadal rivojlantirishni

ta'minlash, zamonaviy bank xizmatlari bozorini yaratish, xizmatlarning yangi turlarini ishlab chiqarish va iste'mol qilishning oqilona infratuzilmasini shakllantirish kabi ustuvor yo'nalishlardagi vazifalarni jadal hal qilishni taqozo etadi.

7. Xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish shuni ko'rsatdiki: ularda raqamli bank biznes modellarining yuqori rivojlanish darajasi, xususan elektron tijorat va elektron tijorat formatidagi xizmatlarning barqarorligi, bu P2B bank xizmatlari va P2P pul o'tkazmalarini jadal rivojlanganligi. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlari onlayn rejimda biznes yuritish uchun yuqori texnologiyali xizmatlardan foydalanayotgan masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimining mukammalligidir. Bu ko'rsatkichlar raqamli banking biznes modellarining rivojlanishini sezilarli darajada ko'tarishga xizmat qiladi.

8. Hududda Mikrokreditbank ATB Qoraqalpog'iston Respublikasi filiali tomonidan ko'rsatiladigan bank xizmatlarning istiqbol davrlarga mo'ljallangan ilmiy prognozi ekonometrik tahlil qilinganda, 2030-yilgacha mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlarida berilgan kreditlar hajmi har ikkita usullar bo'yicha hisoblangan variant ssenariysida ham o'sish tendensiyasi kuzatildi. Bu, o'z navbatida, hudud iqtisodiyoti rivojlanishi bilan bank xizmatlarida kreditlash ijobiy tendensiyalari faollashishi natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi, ishbilarmonlik muhiti yaxshilanishi bilan birga, boshqada qator subyektiv omillarga ko'proq bog'liqligini isbotlaydi.

9. Ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlarida Mikrokreditbank ATB Qoraqalpog'iston Respublikasi filiali xizmatlarida kreditlarning 1-variant ssenariysi moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Hisob-kitoblarimizga ko'ra, 2025-yil uchun prognoz ko'rsatkichlarida kreditlash hajmi 863,9 mlrd. so'mni, 2026-yilda 1040,2 mlrd. so'm, 2027-yilda 1232,4 mlrd. so'm va 2030-yilga kelib 1895,5 mlrd. so'mni tashkil etishi hamda 2030-yilda 2025-yilga nisbatan 54,4 foiz punktga o'sish imkonini beradi. Depozitlar hajmi 1-variant ssenariysida 2025-yil uchun olingan prognoz ko'rsatkichlarida 567,5 mlrd. so'mni, 2026-yili 696,0 mlrd. so'm, 2027-yili 838,1 mlrd. so'm va 2030-yilga kelib 1345,3 mlrd. so'mni tashkil etib va 2030-yilda 2025-yilga nisbatan 57,8 foiz punktga o'shish ehtimoli mavjud. Bu esa, Qoraqalpog'iston Respublikasida bank xizmatlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va istiqbollari ruyobga chiqishida hudud aholisi va tadbirkorlik subyektlarining banklarga bo'lgan ishonchining oshishiga rag'bat va sharoit yaratadi.

10. Hududda bank xizmatlari salohiyati va istiqbolda moliyaviy xizmatlardan samarali foydalanish, shuningdek sifatini oshirish yuzasidan Mikrokreditbank ATB Qoraqalpog'iston Respublikasi filialining 2022-2023 yillardagi bank aktivlarini bank tomonidan berilgan kreditlarga ichki foydalilik darajasi bo'yicha samaradorligi moliyaviy tahlil qilindi. Tahlilda 1-variant ssenariysida samaradorlik "10" foizni tashkil etdi. 2-variant ssenariysuda esa samaradorlik "-1,2" foizni tashkil etib, manfiy ko'rsatkichga ega bo'ldi. Bu holatni dissertatsiyada ishlab chiqilgan Mikrokreditbank ATB Qoraqalpog'iston Respublikasi filialida berilgan kreditlar prognozining 2-variant ssenariy ma'lumotlari ham isbotladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.01.2020.I.20.06 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ БЕРДАХА**

---

**КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ  
БЕРДАХА**

**СЕРЖАНОВ АЙМУРАТ МЕДЕТБАЕВИЧ**

**ПЕРСПЕКТИВЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ БАНКОВСКИХ  
УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН  
(НА ПРИМЕРЕ АКБ “МИКРОКРЕДИТБАНК”)**

**08.00.05 – Экономика отраслей сферы услуг**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по ЭКОНОМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Нукус – 2025**

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2024.1.PhD/Iqt3717.

Диссертация выполнена в Каракалпакском государственном университете имени Бердаха.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на сайте Научного совета ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) и на сайте информационно-образовательного портала "ZiyoNet" ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

Научный руководитель:

Мусагалиев Ажинияз Жумагулович  
доктор экономических наук

Официальные оппоненты:

Норчаев Асатулло Норбутаевич  
доктор экономических наук, профессор

Атамуратова Нурзада Байрамовна  
доктор философии по экономическим наукам (PhD)

Ведущая организация:

Самаркандский государственный университет  
имени Шарафа Рашидова

Защита диссертации состоится "10" апреля 2025 г. в 16<sup>00</sup> на заседании Научного совета PhD.03/30.01.2020.I.20.06 при Каракалпакском государственном университете имени Бердаха. Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч.Абдирова, 1. Тел.: (99861) 223-60-47; факс: (99861) 223-60-78; e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета имени Бердаха (зарегистрирована под номером 289). Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч.Абдирова, 1. Тел.: (99861) 223-60-47; факс: (99861) 223-60-78; e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz).

Автореферат диссертации разослан "24" марта 2025 г.  
(реестр протокола рассылки No 69 от "24" марта 2025 г.).



Сауханов Ж.К.

Председатель Научного совета по  
присуждению ученых степеней, д.э.н.,  
профессор



Утемуратов Р.Б.

Ученый секретарь Научного совета по  
присуждению ученых степеней, PhD,  
доцент

Калмуратов Б.С.

председатель Научного семинара при  
Научном совете по присуждению  
ученых степеней, д.э.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В условиях дальнейшего усиления конкуренции на мировом рынке банковских услуг и возрастающей роли цифровых технологий повышение эффективности и качества финансовых услуг в деятельности банков рассматривается как одна из наиболее актуальных проблем. Согласно отчетам Всемирного банка, “в период пандемии 40% новых пользователей цифровых банковских услуг воспользовались онлайн-банкингом, при этом в Восточной Азии и Тихоокеанском регионе этот показатель составил 54%, в Латинской Америке и Карибском бассейне - 15%, а в Европе и Центральной Азии - 10%”<sup>1</sup>. В настоящее время в мире при развитии банковских услуг, особенно при оказании услуг коммерческими банками, уделяется внимание устранению несоответствий, а также организации качественного обслуживания субъектов предпринимательства путем целенаправленного использования возможностей регионов в развитии банковских услуг.

В структуре научных исследований, проводимых в мире с целью повышения эффективности деятельности финансовых институтов и оказываемых ими услуг, приоритетное значение приобретают исследования, направленные на развитие банковских услуг для юридических и физических лиц. В связи с этим важное значение приобретают научные исследования в таких направлениях, как эффективная организация банковских услуг с учетом возможностей социально-экономического развития региона, расширение дистанционного банковского обслуживания, повышение культуры предоставления услуг клиентам в банках, широкое внедрение финансовых услуг в деятельность населения и предпринимателей, введение новых видов услуг, а также повышение доверия к банку путем постоянного учета мнения клиентов в вопросах обслуживания.

В рамках строительства Нового Узбекистана осуществляются широкомасштабные мероприятия по качественному развитию финансовых институтов и дальнейшему повышению культуры обслуживания, а также обеспечению качества и эффективности банковских услуг в соответствии с современными требованиями. В стратегии “Узбекистан – 2030” определены такие приоритетные задачи, как “взаимная координация денежно-кредитной, фискальной и внешнеторговой политики, а также продолжение структурных реформ, направленных на улучшение конкурентной среды на рынке товаров и услуг”<sup>2</sup>. В решении этих задач важное значение имеет дальнейшее расширение исследований в таких направлениях, как организация деятельности коммерческих банков в соответствии с современными требованиями, расширение возможностей эффективного использования механизма

---

<sup>1</sup> World bank Report. <https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2022/06/29/covid-19-drives-global-surge-in-use-of-digital-payments>.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-sonli Farmoni. <https://www.lex.uz>.

кредитования в банковских услугах, обоснование прогнозных показателей банковских услуг.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в Указе Президента Республики Узбекистан “О стратегии реформирования банковской системы Республики Узбекистан на 2020-2025 годы” № УП-5992 от 12 мая 2020 года, Указе “О стратегии Узбекистан – 2030” № УП-158 от 11 сентября 2023 года, Указе “О дополнительных мерах по повышению благосостояния населения путем ускоренного развития предпринимательства, инновационных технологий и инфраструктуры в Республике Каракалпакстан” № УП-213 от 31 августа 2022 года, в Постановлении Президента Республики Узбекистан “О дополнительных мерах по совершенствованию финансирования бизнес-инициатив населения в рамках программ развития семейного предпринимательства” № ПП-149 от 2 апреля 2024 года, а также в других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I: “Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики”.

**Степень изученности проблемы.** В развитии теории банковских услуг существуют различные подходы, а вопросы развития рынка банковских услуг освещены в научных работах таких зарубежных ученых, как Х.Дуглас, А.Цикосова, М.Жаношкова, К.Цулькова, М.Хампа, З.Абутораби, К.Конара, И.Эдиривеера, Д.Перера, А.Матсароло, Э.Вагнер, Д.Монтемор, Ф.Динер, М.Спачек, Ф.Кициос, И.Гиацидис, М.Камариотоу, М.Мацуо, Ч.Минами, Т.Мацуяма, С.Зиммерманн<sup>3</sup>. В их работах рассматриваются вопросы влияния маркетинга банковских услуг на удовлетворение потребностей клиентов в банковском секторе, цифровой трансформации и стратегии в банковском секторе, развития электронных услуг, а также инновационные подходы в услугах интернет-банкинга. Данные исследования служат методологической основой для изучения темы.

---

